ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2026 / № 4.1

Termiz – 2026

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 19 oktyabrda 1122 raqami bilan ro'yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko'chirma va ma'lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko'chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 10.11.2026
Qog'oz bichimi: 70x85
Bosma tabog'i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog'ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko'chasi, 43.
Telefon: +998990 377 77 23,
+99895 986 07 77

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY'ATI:

Bekpo'lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o'rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas'ul muharrir)
O'ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Zabita Mahammad qizi Teymurlu, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent (Ozarbayjon)
Tarana Imomverdi qizi Xojieva, filologiya fanlari doktori, professor (Ozarbayjon),
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Murodqosim Abdiyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Normat Y o'ldoshev, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Baxtiyor Xolmuxamedov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O'zbekiston)
Asqar Eshmo'minov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, filologiya fanlari doktori, dotsent (O'zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Nargis Qurbonazarova, filologiya fanlari doktori, dotsent (O'zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Shoira Omonturdiyeva, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Jo'rabek Cho'tmatov, t.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Alibek Omonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Mahliyo Botirova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To'raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 10.11.2026
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998990 377 77 23, +99895 986 07 77

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
https://journaltersu.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ,
доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (. PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Забита Магомед кызы Теймурлу, доктор философии по филологии, доцент (Азербайджан)
Тарана Имамверди гызы Хаджиева, доктор наук, профессор (Азербайджан)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мурадкасим Абдиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бахтиёр Холмухамедов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Ахад Шукуров, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д. ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, доктор наук, доцент (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, доктор наук, доцент (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Шаира Амонтурдиева, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Журабек Чутматов, д.и.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Алибек Омонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Махлиё Ботирова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 10.11.2026
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998990 377 77 23,
+99895 986 07 77

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV,
doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Zabita Magomed kyzy Teymurlu, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Azerbaijan)
Tarana Imamverdi gizi Khadzhieva, Doctor of Sciences, Professor (Azerbaijan)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muradkasim Abdiyev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Kholmukhamedov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, Doctor of Sciences, Associate Professor (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, Doctor of Sciences, Associate Professor (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Shoira Omonturdiyeva, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Jurabek Chutmatov, Doctor of Philosophy in History (Uzbekistan)
Alibek Omonturdiev, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Makhliyo Botirova, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

МУНДАРИЖА

TILSHUNOSLIK

Solixo‘jayeva Havasxon Zokirjanovna
Professor Nosirjon Uluqov – Namangan onomastika maktabi asoschisi 7

XAKIMOVA MUHAYYO KARIMOVNA
O‘zbek tili abstrakt leksikasida zidlik munosabatlari 11

SHUKUROV AXAT AXMATOVICH
Sinonimlarning lingvostilistik xususiyatlari 16

TURDIMURODOV SIROJIDDIN ESHQOBILOVICH
Yashirin, yumshatilgan va bilvosita ifodalangan ma’nolar tahlili
(evfemik ibora va maqollar misolida) 20

KURBANAZAROVA NARGIS SHODIYEVNA
Tortuvli etnonimining etimologik tahlili 23

TURDIQULOV SHERZOD DUMINOVICH
Ziyoratgohlar etimonining lingvomadaniy kodlarda aks etishi: sangardak teotoponimi 26

AHMEDOV HAKIM YARASHEVICH
Doston frazeologiyasida mifologik qatlamning lisoniy ifodasi
(Surxondaryo turkum dostonlari misolida) 29

ERGASHEVA DILRABO ALLANAZAROVNA
Badiiy so‘z san’atida dialogning ifodasi (Odil Yoqubov asarlari misolida) 32

ISOQOVA FERUZA SHAMSIDDIN QIZI
Kommunikatsiya, muloqot va diskurs: tushunchalarning farqlanishi va
diskursning kommunikativ maqomi 35

САЙДУЛЛАЕВА РАНО ИБАДОВНА
Проблема терминологической фиксации онимной периферии 38
(на материале русского и узбекского языков) 38

SULEYMANOVA NILUFAR KAMILOVNA,
TUKHTABAYEVA NILUFAR UKTAMJONOVNA
A token-level audit of acoustic measurements in british english vowel reduction 42

QULBULOV SHERQUZI TOSHTEMIROVICH
O‘zbek adabiy tilida nutq uslublari: funksional xususiyatlar va qo‘llanish mezonlari 45

TOJIYEVA DILDORA KOMILJON QIZI
Muammoli maqolada faktlardan foydalanish tartibi 50

ZAYNIDDINOVA ROZIYA SAIDAKBAROVNA
Nato harbiy terminologiyasining shakllanishi: institutsional va me’yoriy model 54

NURMATOVA DURDONA SHUXRAT QIZI
Ingliz va o‘zbek tillarida frazeologik birliklar baho ma’nosining nutqiy aktlarda voqelanishi 57

МУНДАРИЖА

ISLOMOVA BARNO XABIBULLA QIZI
O‘zbek tilida morfologik noaniqlik turlari: tasnif va avtomatik tahlildagi o‘rni 62

HAMROYEV SARDOR AKMALJON O‘G‘LI
Badiiy matnda makon deyksisini o‘rganishning
lingvopragmatik va diskursiv yondashuvlari 67

QURBONOVA MARJONA ERKINJON QIZI
Said Ahmadning «Ufq» trilogiyasida qo‘llangan antroponimlarning
lingvokulturologik talqini....71

ADABIYOTSHUNOSLIK

ALIMOV PARDA,
TOSHPO‘LATOV ZAYNIDDIN IBODULLO O‘G‘LI
Shafoat Rahmatulla Termiziyning ijodiy yo‘li....75

OCHILOVA OZODA BAXTIYOROVNA
Syujet yaxlitligida «davr, shaxs, muallif» uchligi sintezi....80

OBIDJONOVA MA’SUMA
O‘zbek va ingliz ilmiy fantastikasida kelajak motivining badiiy-poetik xususiyatlari....84

PARDAYEVA DILFUZA RAIMOVNA
Insider and outsider perspectives: the earliest literary models of amir timur
in uzbek and russian traditions (oral epic and medieval written sources) 87

ABDUNAZAROV O‘TKIR SAYDULLAYEVICH
A.Oripovning «Jannatga yo‘l» dostonida inson va jamiyat ziddiyatining badiiy talqini 92

ABDULLAYEVA NILUFAR IBRAGIM QIZI
Avhadiy Marog‘iy va Yusuf Amiriy «Dahnoma»larida
o‘n noma janrining poetik transformatsiyasi 95

XURRAMOVA TO‘LG‘ANOY MUZAFFAROVNA
Hakim Termiziy asarlarining adabiyotshunoslik talqini:
janr, timsol va axloqiy-didaktik an’ana masalalari....99

TA’LIM

ДЖУМАНАЗАРОВА ЗИЛОЛА ОБИДЖОНОВНА
Цифровые и интерактивные технологии в содержании
методической подготовки будущих учителей русского языка 104

МИРЗАЕВА ШАХЛО РИЗАЕВНА,
РУЗИЕВА МУШТАРИ ХУСНИДДИН КИЗИ
Эффективность развития русской диалогической речи студентов национальных групп....109

ТУРГУНОВА САЙЕРА АХМАДЖАНОВНА
Проблемное обучение в преподавании специальных филологических дисциплин 112

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 10
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

KOMMUNIKATSIYA, MULOQOT VA DISKURS: TUSHUNCHALARNING FARQLANISHI VA DISKURSNING KOMMUNIKATIV MAQOMI

Isoqova Feruza Shamsiddin qizi,
Termiz davlat universiteti
Ingliz tili va adabiyoti kafedrasi katta o'qituvchisi,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

Tilshunoslik insonlar o'rtasidagi muloqotni ta'minlovchi vositalarni o'rganuvchi fan sifatida falsafa, psixologiya, neyrofiziologiya va semiotika bilan uzviy bog'liq holda rivojlanmoqda. Fanlararo integratsiya natijasida zamonaviy tilshunoslik kognitiv va kommunikativ yo'nalishlarda yangi nazariy yondashuvlar bilan boyidi. Endilikda til faqat grammatik tizim sifatida emas, balki tafakkur, ijtimoiy munosabatlar va madaniy jarayonlar bilan bog'liq murakkab hodisa sifatida tadqiq etilmoqda.

Bu jarayonda diskurs tushunchasi markaziy ilmiy kategoriyalardan biriga aylandi. Diskurs tilning real muloqotdagi ko'rinishi bo'lib, unda til birliklari bilan bir qatorda nutq ishtirokchilari, kommunikativ vaziyat va ijtimoiy-madaniy omillar ham namoyon bo'ladi. Biroq ilmiy adabiyotlarda «kommunikatsiya», «muloqot» va «diskurs» atamalari ko'pincha sinonim sifatida qo'llanadi, bu esa tadqiqotlarda terminologik noaniqlikka olib keladi. Kommunikativ-pragmatik, diskursiv-kognitiv va psixolingvistik paradigmalar doirasida ishlayotgan tadqiqotchi uchun ushbu tushunchalarni aniq farqlash metodologik zaruratdir.

Mazkur maqolada kommunikatsiya, muloqot va diskurs tushunchalarining mazmuniy va funksional chegaralarini aniqlash hamda diskursning zamonaviy muloqotdagi kommunikativ vosita sifatidagi o'rnini asoslash maqsad qilib olindi. Tadqiqotda qiyosiy-tipologik, konseptual va definitsion tahlil, shuningdek, tavsifiy metod va umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Tadqiqot materiali sifatida o'zbek, rus va ingliz tilshunosligidagi monografiyalar, lug'atlar va dissertatsiya avtoreferatlari xizmat qildi.

Kommunikatsiya tushunchasi turli fan vakillari tomonidan turlicha talqin qilingan. E.Rojers uni qabul qiluvchining xatti-harakatini o'zgartirish maqsadida manbadan unga g'oya uzatish jarayoni sifatida belgilaydi[1]. A.V.Sokolov esa kommunikatsiyani shaxsning boshqa shaxsga bo'lgan ehtiyojini ro'yobga chiqarishning faol, maqsadli, amaliy va ma'naviy shakli deb kengroq izohlaydi[2].

Lotincha *communicatio* termini polisemik birlik bo'lib, kontekstga qarab turli jarayonlarni ifodalaydi va tilshunoslik, psixologiya, madaniyatlararo kommunikatsiya kabi sohalarda keng qo'llanadi. Keng ma'noda kommunikatsiya shaxslar, tashkilotlar va davlatlar o'rtasida axborot almashinuvini yo'lga qo'yuvchi omildir. Tahlil qilingan ta'riflarning barchasida uning protsessual tabiatiga – uzatish, almashish va tarqatish mexanizmlariga urg'u berilgani kuzatiladi.

Psixologik adabiyotlarda kommunikatsiya shaxslararo munosabat o'rnatish, axborot, g'oya va hissiyotlar almashinuvi hamda xatti-harakatga ta'sir ko'rsatish jarayoni sifatida qaraladi[3]. Bu talqinda kommunikatsiya tashqi axborot bilan birga shaxsning ichki kechinmalari va emotsional holatini ham ifoda etadi. Sotsiologik yondashuvda esa u ijtimoiy tizimlar barqarorligini ta'minlovchi, bilim, qadriyat va hissiy holatlarni o'zida jamlagan ramziy xabarlar almashinuvi mexanizmi sifatida talqin etiladi[4]. Bu mexanizm jamiyatda axborotning vertikal (hokimiyat – jamiyat) va gorizontal (shaxs – shaxs) harakatini ta'minlaydi. B.D.Parygin kommunikatsiyaning yana bir vazifasi – muloqot ishtirokchilarining ruhiy holatiga xos elementlarni uzatishni alohida ta'kidlaydi[5].

Kommunikatsiya va muloqot atamalarining nisbati masalasida olimlar yakdil emas. Yu.D.Prilyuk axborot almashinuvini kommunikatsiyaning mohiyati deb hisoblaydi, muloqotni esa ushbu tizimning shaxslararo munosabatlarni ifodalovchi torroq ko'rinishi

[1] Rogers E. Communications in Organizations. – M.: Economica, 1980. – P. 15.
[2] Соколов А.В. Общая теория социальной коммуникации: учебное пособие. – СПб.: Изд-во Михайлова В.А., 2002. – С. 19.
[3] Психологический словарь / под ред. В.В. Давыдова, А.В. Запорожца, Б.Ф. Ломова и др. – М.: Педагогика, 1983. – 154 с.
[4] Социология: словарь-справочник. Т. 3. Междисциплинарные исследования. – М., 1991. – С. 70–71.
[5] Парыгин Б.Д. Анатомия общения. – СПб., 1999. – С. 63.

sifatida baholaydi[1]. T.N.Astafurova muloqotni bevosita axborot almashinuvi, hissiy ta'sir va fatik funksiyalarni amalga oshiruvchi ijtimoiy kommunikatsiyaning tarkibiy qismi deb biladi[2].

Bizningcha, kommunikatsiya jamiyat miqyosidagi axborot oqimlarini qamrab oluvchi umumiy tushuncha bo'lsa, muloqot uning shaxslararo, bevosita shaklidir. Muloqotda hissiy ta'sir, aloqa o'rnatish (fatik funksiya) va noverbal vositalar (mimika, imo-ishora, ohang, tana tili) muhim o'rin tutadi. Kommunikatsiya odatda til vositasida amalga oshsa-da, u imo-ishora, mimika va jestlar orqali ham ifodalanadi[3]. Muloqotga yo'naltirilgan yondashuv tilshunoslikda vaziyat omiliga urg'u beradi va kommunikativ tilshunoslikning rivojiga turtki bo'ladi. Tilning inson tafakkuri, ongi va ijtimoiy faoliyatiga ta'siri haqidagi qarashlar esa kommunikatsiya nazariyasida diskursning fanlararo tabiatini yanada mustahkamlaydi[4].

Diskurs nazariyasiga oid tadqiqotlar orasida o'zbek tilshunosi Sh.Safarovning qarashlari muhim o'rin tutadi. Olim shunday yozadi: «Maqsadli ifodalanadigan kommunikativ mazmun va so'zlovchi istagi bilan bog'liq bo'lmagan holda tinglovchi idrokida hosil bo'ladigan informativ mazmun bir-birini inkor qilmaydi, aksincha, ular o'zaro qorishib, birikib, muloqotning samaradorligini ta'minlovchi omilga aylanadi. Kommunikativ va informativ mazmunlar uyg'unligi muloqot tizimi makrobirligining yaxlitligini ta'minlaydi. Hozirgi paytda bunday yaxlitlik xususiyatiga faqatgina diskurs ega ekanligi e'tirof etilmoqda»[5].

E.S.Kubryakova diskurs konsepsiyalari faqat til tizimi va grammatik me'yorlar bilan chegaralanmasligini, kengroq kontekstdagi strukturaviy o'zgarishlarga olib kelishini ta'kidlaydi[6]. Diskursning matndan farqi A.Yu.Popov, matn lingvistikasidagi interdiskursivlik masalalari V.E.Chernyavskaya, til va diskurs munosabati O.G.Revzina tadqiqotlarida yoritilgan[7]. Shunga qaramay, mavjud ishlarda uch tushunchaning – kommunikatsiya, muloqot va diskursning – o'zaro munosabati yagona tizim sifatida, ayniqsa, o'zbek tilshunosligida yetarlicha umumlashtirilmagan.

Diskurs va kommunikatsiya o'zaro bog'liq, biroq vazifasi jihatidan farqlanuvchi tushunchalardir. Kommunikatsiya asosan axborot almashinuvini ifodalasa, diskurs shu axborotning ijtimoiy konteksti, kommunikativ maqsadi va ta'sir mexanizmlarini ham qamrab oladi. Tahlil natijasida ajratilgan asosiy farqlovchi belgilar quyidagi jadvalda umumlashtirildi.

1-jadval

Kommunikatsiya, muloqot va diskursning qiyosiy tavsifi

Belgi	Kommunikatsiya	Muloqot	Diskurs
Asosiy mohiyati	Axborot uzatish va almashish jarayoni	Shaxslararo bevosita axborot va hissiy almashinuv	Axborotning ma'nosi, ijtimoiy o'rni va ta'sirini qamrab oluvchi faol nutqiy hodisa
Maqsadi	Xabarni yetkazish	Aloqa o'rnatish, o'zaro tushunish, hissiy ta'sir	Ijtimoiy ta'sir, harakatga undash, ko'p tomonlama munosabatlarni shakllantirish
Qamrovi	Shaxs, guruh, tashkilot, davlat	Shaxslar	Ijtimoiy, siyosiy, madaniy kontekst bilan birga
Tuzilmasi	Aniq va qisqa xabarlar	Dialogik, vaziyatga bog'liq	Keng kontekstual-semantik maydon, uzoq muddatli muloqot
Shakli	Rasmiy (formal) yoki norasmiy (informal)	Asosan og'zaki, noverbal vositalar bilan	Ijtimoiy kontekst, maqsad va vaziyatga moslashgan
Ekstralingvistik omillar	Qisman	Vaziyat va emotsional holat	Dunyoni anglash, tafakkur, qabul qiluvchi munosabati va maqsadi

[1] Прилюк Ю.Д. Общественные отношения и социальное общение // Общественные отношения (социально-философский анализ). – Киев: Наукова думка, 1991. – С. 34–38.

[2] Астафурова Т.Н. Лингвистические аспекты межкультурной деловой коммуникации. – Волгоград, 1997. – С. 14.

[3] Хабермас Ю. Моральное сознание и коммуникативное действие / пер. с нем. – СПб.: Наука, 2001. – 380 с.

[4] Касториадис К. Воображаемое установление общества / пер. с франц. – М.: ГНОЗИС, Логос, 2003. – 480 с.

[5] Сафаров Ш. Прагмалингвистика: монография. – Тошкент: Фан, 2008. – Б. 236.

[6] Кубрякова Е.С. О понятиях дискурса и дискурсивного анализа в современной лингвистике // Дискурс, речь, речевая деятельность: функциональные и структурные аспекты. – М., 2000. – С. 45–56.

[7] Попов А.Ю. Основные отличия текста от дискурса // Текст и дискурс. Проблемы экономического дискурса: сб. науч. ст. – СПб.: СПбГУЭФ, 2001. – С. 41–44; Чернявская В.Е. Лингвистика текста: Поликодовость, интертекстуальность, интердискурсивность. – М.: ЛИБРОКОМ, 2009. – 248 с.; Ревзина О.Г. Язык и дискурс // Вестник Московского университета. – 1999. – № 1. – С. 25–34.

Jadvaldan ko‘rinadiki, diskurs kommunikatsiyaning kengroq va murakkab shakli sifatida til va jamiyatning o‘zaro ta’sirini aks ettiradi. Zamonaviy muloqotda diskurs muvaffaqiyatli kommunikatsiyaning zarur omili sifatida qaraladi: u tilning ijtimoiy reallik bilan birga o‘zgarishini turli darajalarda namoyon etadi[1]. Diskurs mohiyatini shartli ravishda «Diskurs = Nutq + Harakat» formulasi bilan ifodalash mumkin, ya’ni shaxsning nutqiy harakati muayyan kommunikativ muhit va ijtimoiy kontekstda sodir bo‘ladi[2]. Har bir diskurs turi o‘ziga xos nutq shakllari va leksik birliklarga ega bo‘lib, muayyan madaniy, ijtimoiy va mafkuraviy kontekst bilan belgilanadi[3].

Diskurs va kommunikatsiya masalasi faqat lingvistik emas, balki ijtimoiy-falsafiy va siyosiy kontekstda ham dolzarbdir: turli siyosiy tizimlarda kommunikatsiyaga qadriyat sifatida munosabat turlicha bo‘ladi[4]. Ye.V.Tolstixinaning fikricha, kommunikativ diskurs nutqdan foydalanishning barqaror usulini aks ettiradi va milliy xarakter, nutq odobi hamda xushmuomalalik shakllarini aniqlash imkonini beradi[5].

Siyosiy diskurs oddiy murojaat shakllaridan tubdan farq qiladi. Saylovoldi targ‘iboti, fuqarolar bilan uchrashuvlar va tantanali marosimlarda siyosatchi bilan auditoriya o‘rtasidagi munosabat ham kommunikatsiya, ham diskurs elementlarini o‘z ichiga oladi. Bunda faqat xabar almashish emas, balki har bir nutqiy aktning ijtimoiy-siyosiy konteksti va ta’siri hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shu bois kommunikatsiyaning istalgan ko‘rinishini to‘liq anglash uchun diskursning mazmuni, tuzilishi va funksional mexanizmlarini tahlil qilish zarur[6].

Xulosa qilib aytganda, kommunikatsiya umumiy belgilar tizimi vositasida amalga oshadigan axborot almashinuvi jarayoni bo‘lib, uning barcha ta’riflarida protsessual tabiati yetakchi belgi hisoblanadi. Muloqot kommunikatsiyaning sinonimi emas, balki uning hissiy ta’sir, fatik funksiya va noverbal vositalar bilan ajralib turuvchi shaxslararo shaklidir. Diskurs esa kommunikativ va informativ mazmunning uyg‘unlashuvi natijasida yuzaga keladigan, axborot bilan birga uning ijtimoiy konteksti, kommunikativ maqsadi va ta’sir mexanizmlarini qamrab oluvchi integral kommunikativ tizimdir. Shu sababli «diskurs» atamasini muloqot harakatlari sodir bo‘ladigan integral muhitga nisbatan, «kommunikatsiya» atamasini esa oddiy axborot almashinuviga nisbatan qo‘llash asoslidir.

Keyingi tadqiqotlarda siyosiy diskursni, xususan, o‘zbek tilidagi siyosiy nutq materiali asosida kommunikativ-pragmatik va kognitiv jihatdan o‘rganish istiqbolli yo‘nalish hisoblanadi.

Rezyume. Maqolada «kommunikatsiya», «muloqot» va «diskurs» tushunchalarining lingvistik, psixologik va sotsiologik talqinlari qiyosiy tahlil qilinib, ularning mazmuniy va funksional chegaralari aniqlangan. Kommunikatsiya axborot uzatish jarayoni, muloqot uning shaxslararo shakli, diskurs esa ijtimoiy kontekst, kommunikativ maqsad va ta’sir mexanizmlarini qamrab oluvchi integral kommunikativ tizim ekani asoslangan. Diskursni siyosiy kommunikatsiya doirasida o‘rganish zarurati ko‘rsatib berilgan.

Resume. The article offers a comparative analysis of linguistic, psychological and sociological interpretations of the concepts of “communication”, “interpersonal interaction” and “discourse”, and clarifies their semantic and functional boundaries. It argues that communication is a process of information transfer, interpersonal interaction is its person-to-person form, and discourse is an integral communicative system encompassing the social context, the communicative purpose and the mechanisms of influence. The relevance of studying discourse within political communication is substantiated.

Резюме. В статье проводится сопоставительный анализ лингвистических, психологических и социологических трактовок понятий «коммуникация», «общение» и «дискурс», уточняются их содержательные и функциональные границы. Обосновывается, что коммуникация представляет собой процесс передачи информации, общение – её межличностную форму, а дискурс – интегральную коммуникативную систему, охватывающую социальный контекст, коммуникативную цель и механизмы воздействия. Показана актуальность изучения дискурса в сфере политической коммуникации.

[1] Патюкова Р.В. Публичная коммуникация в дискурсе американской политической элиты: справочное пособие. – Краснодар: Просвещение-Юг, 2009. – С. 7.

[2] Текст и дискурс в современной коммуникации: монография / под ред. Т.Н. Плесканюк. – Нижний Новгород: НИЦ «Открытое знание», 2019. – 88 с.

[3] Шиян Т.А. Текст как элемент акта коммуникации // Методы современной коммуникации: проблемы теории и социальной практики: материалы междунар. науч. конф. «МСК-2002». – М., 2002. – С. 93–94.

[4] Дискурс и коммуникация: монография / под ред. Е.В. Грудевой. – Новосибирск: СибАК, 2015. – 234 с.

[5] Толстихина Е.В. Коммуникативный дискурс в межкультурной коммуникации: автореф. дисс. … канд. филос. наук. – Ростов-на-Дону, 2010. – 28 с.

[6] Попов А.Ю. Основные отличия текста от дискурса. – С. 41–44.